

TOVUQ NEMATODOZLARINI DAVOLASH VA PROFILAKTIKA QILISHNING KOMPLEKS CHORA-TADBIRLARI

Akramov Komiljon Shuhrat o'g'li

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant

Safarov Xurshid Abdurajabovich

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant

komiljonshuhratovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tovuqlar orasida keng tarqalgan gelmintozlar – namtدوزlar (askaridioz, geterakidoz, kapillarioz, singamoz)ga qarshi kurashish ya'ni davolash hamda oldini olish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar kompleksi haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Ushbu kopkles chora-tadbirlar ilmiy izlanishlar natijalari asosida ishlab chiqilgan va veterinariya mutaxassislari uchun dastur sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gelmintoz, nematodoz, tarqalish, mavsumiy dinamika, degelmintizatsiya, davolash, profilaktika, kimyoviy profilaktika, antgelmint, askaridia, kapillaria, geteraks.

Annotation. This article provides information on the complex of strict measures to combat, that is, treatment and prevention of helminthiasis - namtodoses (ascariasis, heterokidosis, capillariosis, syngamosis) common among chickens. These measures are developed based on the results of scientific research and serve as a program for veterinary professionals.

Key words: helminthosis, nematodosis, spread, seasonal dynamics, deworming, treatment, prevention, chemical prevention, anthelminth, ascaridia, capillaria, heterox.

Mavzuning dolzarbligi. Bilamizki gelmintozlar chorvachilik va parrandachilik sohalariga jiddiy iqtisodiy zarar yetkazadi, yana bir guruh gelmintozlar esa inson salomatligiga ham xavf soladi. Ushbu nuqtai nazardan gelmintozlarga qarshi kurashni to'g'ri va to'laqonli tashkil etish hamda sifatli amalga oshirish dolzarb muammo ekanligi shubhasizdir.

Bugungi kunda parrandachilik sohasini rivojlantirish, aholini sifatli parranda mahsulotlari (tuxum, tovuq go'shti) bilan ta'minlash maqsadida davlat siyosati darajasida ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Biz olib borgan

tadqiqotlarimizda tovuqlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini pasaytirib, iqtisodiy chiqimning oshib ketishiga asosan tovuqlar nematodozlari (askaridioz, geterakidoz va kapillarioz) jiddiy ta'sir qilib, ushbu gelmintozlarni davolash va profilaktikasini kompleks tashkil etish dolzarb hisoblanadi.

TOVUQLAR NEMATODOZLARIGA QARSHI KURASHISHNING KOMPLEK CHORA-TADBIRLARI			
	Tovuqlar orasida nematodozlar tarqalishini monitoring qilish	1. 1. Tovuqlar orasida nematodozlar tarqalishini aniqlash	
		1. 2. Nematodozlarning mavsumiy dinamikasini aniqlash	
Tovuqlarni rejali (davolash) degelmintizatsiyasi		2. 1. 1. Degelmintizatsiya sxemasini belgilash	2. 1. 1. Optimal muddatni aniqlash
			2. 1. 2. Degelmintizatsiya hajmini aniqlash
		2. 2. Antgelmint vositani va uni qo'llash uslubini tanlash	2. 2. 1. Birma – bir (individual) uslub
			2. 2. 2. Guruhli usul *
Yaylov (yayratish maydonlari) profilaktikasi		3. 1. Nematodozlar qo'zg'atuvchilari va ularning rezervuar xo'jayinlariga qarshi kurashish	3. 1. 1. <i>Ascaridia galli**</i> , <i>Heterakis gallinarum**</i> , <i>Capillaria obsignata**</i> , <i>Syngamus nematodali</i> yo'qotish hamda <i>Eisenia foetida</i> va <i>Dendrobaena masiupolinsis</i> kabi yomg'ir chuvalchaglarni zararsizlantirish
		3. 2. Tovuqlarning nematodozlar bilan zararlanish manba'larini zararsizlantirish	3. 2. 2. To'shamalarni tez-tez almashtirish va tozalash, parrandaxonadan chiqqan axlatni dastlab termik qayta ishlab so'ngra foydalanish. Sug'orishda

		artizan suvlaridan foydalanish.
Tovuq nematodozlariga qarshi kimyoviy profilaktika	4. 1. Nematodozlardan xalos bo'lguncha har kuni 0, 1 foiz hisobida Gossipirin yoki 0, 01 foiz hisobida Kufestrol aralashtirilgan ozuqani tovuqlarga bir mahal berish	

Asosiy qism. Gelmintozlarga qarshi kurashning birinchi bosqichida – har bir hudud va alohida xo'jaliklar sharoitida monitoring o'tkazilib gelmintozlarning tarkibi, ularning tarqalish darajasi va yil mavsumlari bo'yicha hamda turli yoshdagi tovuqlarning gelmintozlar bilan zararlanish dinamikasi aniqlanadi. (sxemaga qaralsin).

Ushbu ma'lumotlar asosida nematodozlarga qarshi kurash chora–tadbirlar rejasi tuziladi: rejada davolash-profilaktik degelmintizatsiya o'tkazish muddatlari aniqlanadi. Degelmintizatsiyaning optimal muddatlari gelmintozlarning ko'payishi ya'ni dinamikasining ko'tarilishi davrini hisobga olgan holda belgilanadi.

Tovuqlar nematodozlariga qarshi kurashning yana bir muhim tomoni – degelmintizatsiya uchun ishlatiladigan antgelmint vosita (preparat)larni tanlash bo'lib, bunda har bir alohida hudud (xo'jalik)da nematodozlarning tur tarkibi, tovuqlarning nematodozlar bilan zararlanish darajasi ya'ni invaziya ekstensivligi va intensivligi hamda gelmintlarning rivojlanish bosqichi kabi ma'lumotlarni hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, tovuqlar gelmintozlarining asosiy guruhi nematodozlarga qarshi vositalar – benzimidazol guruhiga kiruvchi preparatlar (albendazol) hamda imidazol (nilverm, levamizol, tetramizol) kabi vositalarni qo'llash tavsiya etiladi.

Degelmintizatsiyaning samarasi uni qo'llash uslubiga ham bog'liq. Tabiiyki, hayvonlarni birma-bir (individual) degelmintizatsiya qilish eng yuqori samara beradi. Ammo, parranda guruhlarini degelmintizatsiya qilishda "guruh usuli"ni qo'llash qulay va yuqori samara beradi. Guruh usulida degelmintizatsiya qilish antgelmint vositalarni hayvon ichadigan suvda eritib yoki ozuqasiga aralashtirib berish, maxsus davolovchi-ozuqa granula shaklida berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tovuqlar nematodozlariga qarshi kurash tizimida bu kasalliklarning keng tarqalishini oldini olish uchun nematodozlarni yaylov profilaktika qilish tadbirlarini amalga oshirish lozim, ya'ni parrandalarni tashqi muhit – yaylovlar, parrandachilik binolar, inventar va boshqa invaziya manba'laridan himoya qilishga e'tibor berish lozim. Tovuqlar nematodozlari (askaridiaz, kapillarioz, geterakidoz va singamoz) qo'zg'atuvchilarining tuxumlari bilan zararlangan yaratish maydonlari,

nematodozlarning rezervuar xo'jayinlari hisoblangan *Eisenia foetida* va *Dendrobaena masiupolinsis* kabi yomg'ir chuvalchanglar hamda ninachilar bilan oziqlanib gelmintlarni yuqtirib olishiga qarshi choralarni izchillik bilan amalga oshiraborish lozim.

Gelmintozlarni oldini olishda tashqi muhitni gelmint tuxum va lichinkalaridan tozalash, zararsizlantirish tadbirlarini amalga oshirish ham muhim tadbir bo'lib hisoblanadi. Bunda parrandaxonadagi to'shamalarni tez-tez almashtirish, parrandaxonadan chiqqan tezak va to'shamalarni dastlab termik ishlovdan o'tkazib shundan so'ng ekin maydonlarida foydalaish zarur. Shuningdek parrandalar yayratiladigan maydonlar, parrandaxonalarda yovvoyi hamda o'tkinchi qushlarning donlashi va kirishini oldini olish zarur.

Tovuqlar orasida nematodozlarning keng-ko'lamda tarqalishini oldini olishning yana bir omili – tovuqlar organizmini gelmintozlarga qarshi immunobiologik himoya kuchini rag'batlantirish zarur. Tovuqlarni vitaminlarga boy ozuqalar bilan oziqlantirish, oqsil va mikro – makroelementlar yetarli ozuqalar bilan ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh jo'jalarni boqishda ozuqasiga gossipirin, kufestrol kabi rag'batlantiruvchi vositalarni aralashtirib berish juda samarali bo'lishi tadqiqotlar natijalariga ko'ra aniqlangan bo'lib, jo'jalarning juda yahshi o'sish-rivojlanishni ta'minlovchi va antgelmint xususiyatga ega ekanligi 2022-2023 yillardagi tajribalarimizda o'z tastig'ini topgan.

Umuman, olganda tovuqlar gelmintozlariga qarshi kurashda yuqorida qayd qilingan chora – tadbirlar kompleksining har bir elementlarini to'liq va sifatli amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramov K. S. , Meyliyev S. S. O'zbekistonning Buxoro va Navoiy viloyatlarida qoramol va parranda gelmintlarining epizootologiyasi. – 2023 yil.
2. Djabbarov Sh. A. Gelmintozlarga qarshi kurash chora-tadbirlarining samaradorligi va uni oshirish yo'llari. //vet. fan. dok. dissertasiyasi. 2017. – B. 98-122.
3. Djabbarov Sh. A. , Akramov K. Sh. Respublikamizning sharqiy geografik-iqlim mintaqalarida parrandalar (tovuqlar) gelmintozlarining tarqalishi. // Veterinariya meditsinasi jurnali. № 7. Toshkent, 2022-y. -B. 24-26.
4. Oripov A. O. , Yuldashev N. E. Modern strategi, new methods and means for control of helminthas in Uzbekistan. Украинськ. часопис ветеринарних наук, №3. том 12.



5. Oripov A. O. , Djabbarov Sh. A. , Safarov X. Main helmintiasis of farm animals and their spreading rate. The American Journal of veterinary and Discovery (JSSN-2689-0968), volume 04. issue of Pages 1-8.
6. Oripov A. O. , Djabbarov Sh. A. , Akramov K. Sh. Tovuqlar nematodozlarining tarqalishi va davolash chora-tadbirlari. // Tavsiyanoma. Samarqand, 2024-y. -B. 18
7. Акрамов К. Ш. , Ахмадов А. И. РЕСПУБЛИКАМИЗНИНГ АЙРИМ ВИЛОЯТЛАРИДА ТОВУҚЛАР ОРАСИДА ГЕЛЬМИНТОЗЛАРНИНГ ТАРҚАЛИШИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 864-871.
8. Орипов А. О. , Юлдашов Н. Э. , Нарзуллаева Ф. , Хамидов Ф. Чорва молларининг асосий гельминтозларига қарши даволаш–профилактика чора – тadbirlарининг оптимал муддатлари. // “Veterinariya meditsinasi” илмий – оммабоп журнал, № 2. 2023, -Б. 6-13.
9. Орипов А. О. , Джаббаров Ш. А. , Юлдашов Н. Э. Современные методы и средства профилактики гельминтозов. Тенденция развития ветеринарной паразитологии на прост. СНГ. 28-30 апреля 2021 г. , г. Самарканд. Мат-лы в Интернете.
10. Тайлоков Т. И. Ўзбекистон шароитида эчкиларнинг гельминтлари ва гельминтозлари. Докторлик (DSc) дисс. автореф. 2023, Самарканд.